

BERDAQ IJODIGA SHAXSIY HAYOTINING TA'SIRI

*Yo'libayeva Shaxlo Bekzod qizi
Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti
Davolash va tibbiy pedagogika fakulteti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Berdaqning shaxsiy hayoti va ijodining boshlanishida tutgan ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: shoir, baxshi, Berdaq, meros, kambag'allik, daromad.

KIRISH

Yurtimizda yoshlar, shu jumladan talabalar va o'quvchilar o'rtaida atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng targ'ib qilsih, ylarning adabiyotga qiziqishlarini yanada oshirish, rag'batlantirish maqsadida ulkan amaliy ishlar olib borilmoqda. "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish ularni ezgu maqsadlarga ilhomlashtirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz" Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ushbu jumlalarini o'qib ham adabiyot ulkan yengilmas kuchga ega ekanligiga yana bir bor amin bo'lamicha. Biz yoshlar o'mnak olishimiz kerak bo'lgan shoirlardan biri Berdaqdır.

ASOSIY QISM

Iste'dodli shoir, mashhur baxshi, o'sha davrning boylari va boshqa amaldorlari tomonidan taqib ostiga olingan Berdaq 1827-yili Orol dengizining janubiy sohilidagi Oq qal'a degan joyda kambag'al baliqchi oilasida dunyoga keldi. U joy hozirgi Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq rayoniga to'g'ri keladi. Ota-bobolari qishloqning eng kambag'al odamlaridan bolgan, uyi ham, molu-mulki ham, Amalie ham bo'limgan. Ayoli vafot etgandan so'ng otasi qayta uylanishga majbur bo'ladi. Shu ayoldan ya'ni binning taniqli shoirimiz dunyoga keldi. Uning uch aka-ukalari bor edi: Fozilbel, Berdibek, Kalibeklardir. Berdaq o'n yoshida ota-onasidan judo bo'ldi. Shoir amakisi Qoshqarboy va uning o'g'li Nazarbiy tomonidan tarbiyalanadi. Bu yerda Berdaq ularni mollarini boqadiva uy ishlariga yordam beradi. O'n ikki-o'n uch yoshida Berdaq asarlar yozishni boshlaydi, birinchi asarlari iddiy mavzulardan iborat bo'lgan. Keyinchalik esau to'ylarda baxshi bo'lib xuzmat qilgan. Berdaq taxminan yigirma ikki yoshida muyten urug'idan ya'ni kentay avlodidan bo'lgan Boymanqulning qizi Bibitxon ismli qizga uylangan. Bu xotindan to'rt qiz farzand tug'iladi, ularning orasida Hurliman birinchi qoraqalpoq ayol baxshi bo'ladi va yana ikki o'g'illi bo'lgan. Berdaqni ko'p nabiralari bo'lgan, ulardan biri Hurlimanning o'g'li Qorajon, u ham baxshi bo'lgan. Qorajon onasidan qo'shiqchilik qobiliyatini meros qilib olgan va Berdaqning dutorida

musical chalib qo'shiq aytgan. Bu dutorni ya'ni Berdaqni dutorini Qorajon Qoraqalpoq muzeyiga bergen. Tez orada Berdaq mashhur baxshi shoir bo'ldi va o'z she'rlarida musical tuzdi. U Qoraqalpog'istonning katta to'ylarida, bayramlarida, ovul va qishloqlarda xizmat qiladigan bo'ldi.

Ammo, mashhur shoirning hayoti kamchilik va qiyinchilikda o'tdi. Shuning uchun u biror daromad topish uchun hattoki, o'ziga yoqmagan insonlarga asarlarini kuylagan. Masalan, Qoraqum eshon madrasasida o'quvchilarga bir qo'zichoq obraziga ular Berdaqni sevinli qo'shiqlarini aytishga majbur etishgan. Keyin ular shoirni aldagan va urib tashlashgan. Bu haqda Bersaq o'zining "Yaxshiroq" she'rida yozgan.

Dunyoga kelibsan, baxting ochilsa
Dushmanlaring oyog'inga bosh Ursa
Qo'lni qovushtirib, hurmating qilsa
Ko'z olaytirgandan izzat yaxshiroq.
Ishni ishla, tug'ilgansan ell uchun
Joningni ayama, odil El uchun
Kindik qoni tomgan aziz yer uchun
O'lib ketguningcha xizmat yaxshiroq.

Qattiq talab va sahiy pul mukofoti evaziga Berdaq she'rini o'zining qattiq kulgisi bilan mashur bo'lgan Kulenga bag'ishlagan, lekin u ham Berdaqni aldab ketgan. Bu haqda achchiq afsuslik bilan Berdaq o'zining "Bo'lgan emas" asarida yozgan. Uning ajdodlari va o'zi ham kambag'al bo'lganligi uchun ular shoirni yo'q qilmoqchi bo'lganlar. Berdaq o'z xalqining ziyolisi, bilimdon inson bo'lismiga qaramasdan o'sha davrda hech kim uni taqdirlamadi, ulug'lamadi, hattoki hurmatga ham ega bo'lmedi. Lekin, shoir o'z yo'lidan qaytmadi va umrining oxirigachaadolat uchun kurashdi.

Shoir haqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchuyfidokor kurashchilarni orzu qiladi ("Xalq uchun", "Menga kerak" va boshqalar). Tarixni mavzudagi "Avlodlar", "Omongeldi", "Azadosbiy", "Ernazarbiy" asarlarida shoir xalq qaxramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdaqning "Avlodlar" asari tarixiy voqealar solnomasi bo'lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi firoqlari bayon qilinadi. Berdaq ba'zi ta'magir ruhoniylarning kirdikorlarini foshetadi ("Yaxshiroq", "Shekilli" va boshqalar), ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqiradi ("O'g'limga", "Ahmoq bo'lma" va boshqalar) shular jumlasidandir¹.

XULOSA VA MUNOZARA

Berdaq umr bo'yi xalq ozodligi vaadolat uchun kurashib yashadi. Boylar, amaldorlarning, xonlarning zulmiga qarshi boshlagan ijodini hech qachon, qanchalik

¹ Qurboboyev B, Berdaq va o'zbek adabiyoti T;1986-y

qarshiliklar ko'p bo'lsa ham to'xtatmadi. Berdaqning shunday she'rlari borki , ular barcha zamonlar uchun birday qadrli bo'la oladi va hech qachon qimmatini yo'qotmaydi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent-2000-yil
2. Tanglauli shig'armalari, Nokis 1956-yil
3. Tanlangan she'rlar 1958-yil T;1976
4. Qurboboyev B, Berdaq va o'zbek adabiyoti T;1986-y
5. Ma'naviyat yulduzлari-Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. Toshkent-1999-yil